

NUTQIDA NUQSONI BO‘LGAN O‘QUVCHILARNING IJODIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK METODLARNI AHAMIYATI

Xatamova Nilufar Raxmatulla qizi

Defektologiya logopediya yo‘nalishi magistranti

ANNOTATSIYA

Pedagogikada metod va usul o‘rtasidagi farq ular yordamida hal etiladigan o‘quv bilish vazifalarinig hajmi va tabiatiga bog‘liq: metod umumiy o‘quv vazifasini yoki uning yirik mantiqiy qismini butunlay hal qiladi.

Kalit so‘zlar: Metod, zamonaviy didaktika, usul, maktabgacha pedagogika, nutq nuqsoni.

Maktab pedagogikasida metod deb, ta’lim-tarbiya berish maqsadida qo‘llaniladigan pedagogik ta’sir etish uslublari tushuniladi. Metod o‘z ichiga bolalar faoliyatini tashkil etish va unga rag‘barlik qilishga qaratilgan pedagogik faoliyat usullarini, shuningdek, tarbiyalanuvchilarning faoliyat turlari va usullarini qamrab oladi. (L.A.Golovchis). Har bir metodda tashqi va ichki tomonlar farqlanadi. Metodning tashqi tomoni bu tarbiyalanuvchi va pedagogning harakat usullarining sistemasidir. Metodning ichki tomoni u yoki bu harakat usullari zamirida yotadigan psixik bilish jarayonlaridan iborat. Metodning u yoki bu aniq elementlarini usullar deb nomlash qabul qilingan. Metodni tashkil etuvchi usullar qanchalik turli-tuman va boy bo‘lsa, o‘quv-bilish va o‘quv-amaliy vazifalarni hal etish ham shuncha muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Metod va usul o‘zaro dialektik aloqadadir: metodning tarkibiy qismi bo‘lgan usul ayrim hollarda metod sifatidan namoyon bo‘ladi. Metod va usul o‘rtasidagi farq ular yordamida hal etiladigan o‘quv bilish vazifalarinig hajmi va tabiatiga bog‘liq: metod umumiy o‘quv vazifasini (yoki uning yirik mantiqiy qismini) butunlay hal etishga, usul

birmuncha kichikroq vazifani hal etishga qaratilgandir. Zamonaviy didaktikada bolalarning faoliyatini, borliqni bilish yo‘llarini belgilovchi ko‘rgazmali, amaliy va so‘zli metodlar qo‘llaniladi. (A.V.Zaporojes, T.A.Markova, V.I.Loginova, P.G.Samorukova). Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning maktabida uch turdagi maktabgacha ta’limda qo‘llaniladigan, namoyish etiladigan ko‘rgazmali metodlar guruhlariga bo‘linadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1.Muzaffarova, X. (2020). ДИДАКТИК ЎЙИН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ – ПЕДАГОГИК ФЕНОМЕН СИФАТИДА. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(92). извлечено от

2.Muzaffarova, X. (2020). АҚЛИ ЗАИФ БОЛАЛАР БИЛАН КОРРЕКЦИОН-РИВОЖЛАНТИРИШ ИШЛАРИНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШГА ЯНГИЧА ЁНДОШУВЛАР

